



UDK: 372.8:37.015.3

ORCID: 0009-0009-2362-4311

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI O'QITISH ORQALI KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH PRINSIPLARI

Marjona Xakimova Azamat qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: marjona01020304@gmail.com

tel: +998944999395

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'qitish jarayonida kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlanirish prinsiplari tahlil qilingan. Unda ta'lif jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar, lingvodidaktik yondashuvlar hamda vaziyatli tilni o'qitish va og'zaki yondashuvning o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, Berlitz maktabalarida qo'llanilgan didaktik tamoyillar misolida o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlanirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lif, ingliz tili o'qitish, kreativ tafakkur, o'quvchi kompetensiyasi, lingvodidaktika, moslashtiruvchi mashqlar, vaziyatli til o'qitish, og'zaki yondashuv, ta'lif texnologiyalari, ijodiy metodlar, kommunikativ yondashuv.

PRINCIPLES OF DEVELOPING CREATIVE THINKING THROUGH TEACHING ENGLISH IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS.

Annotation: This article analyzes the principles of developing and fostering creative thinking in primary school students through English language teaching. It highlights innovative methods, linguodidactic approaches, as well as the role of situational language teaching and the oral approach in the learning process. Furthermore, the didactic principles applied in Berlitz schools are examined as an example of how to enhance students' independent and creative thinking skills.

Keywords: Primary education, English language teaching, creative thinking, learner competence, linguodidactics, adaptive exercises, situational language teaching, oral approach, educational technologies, creative methods, communicative approach.

ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ЧЕРЕЗ ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ.

Аннотация : В данной статье анализируются принципы формирования и развития креативного мышления у учащихся начальных классов посредством обучения английскому языку. Освещаются инновационные методы, лингводидактический подходы, а также роль ситуативного обучения языку и устного подхода в образовательном процессе. Кроме того, на примере дидактических



принципов, применяемых в школах Berlitz, раскрываются возможности развития у учащихся навыков самостоятельного и творческого мышления.

Ключевые слова: Начальное образование, обучение английскому языку, креативное мышление, компетенция учащихся, лингводидактика, адаптивные упражнения, ситуативное обучение языку, устный подход, образовательные технологии, творческие методы, коммуникативный подход.

KIRISH

XXI asr ta'limi jarayonida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida xorijiy tilni o'qitish nafaqat lingvistik bilimlarni o'zlashtirishni, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni noodatiy hal qilish va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni ham nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda kreativ tafakkurni shakllantirishning samarali mexanizmlari sifatida o'quvchilarni faol va ijodiy jarayonga jalg qiluvchi metodlar keng qo'llanilmoqda

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Prinsp” atamasining qadimgi yunon falsafasidagi “arché” tushunchasidan kelib chiqishi haqidagi ma'lumot Aristotelning asarlari va ular haqidagi ilmiy tahlillarda keltirilgan. Aristotel tabiatdagi asosiy sabablar va qonuniyatlarni tushuntirish uchun bunday prinsplarni o'rgangan[1. 12-15]. “Prinsp” so'zining lotin tilidagi “principium” shakli o'rta asr olimlari tomonidan qo'llanilishi haqidagi ma'lumot tarixiy va falsafiy adabiyotlardan olingan. Bu davrda lotin tili ilmiy til sifatida keng ishlatilgan[2. 89-92]. Uyg'onish davrida prinsiplar tabiatni matematik va mantiqiy tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qilgani haqidagi ma'lumot ilmiy inqilob davrining tarixiy tahliliga asoslanadi[3. 201-205]. Tabiatni tushuntirish, ilmiy bilimlarni tizimlashtirish va murakkab hodisalarini soddalashtirish uchun “prinsiplar” atamasining zarurligi haqidagi ma'lumot falsafa va ilmiy metodologiya tarixiga oid umumiyligi tahlillarda keltirilgan[4. 67-71]. Chet til o'qitish metodikasiga prinsp tushunchasi Ye.I.Passov tomonidan asos solingan. Uning fikricha, «prinsip - o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir»[5. 22] deb ta'kidlagan. Professor Jamol Jalolov esa prinsip termini «asos bo'ladigan yo'l-yo'riq, qonun-qoida» ma'nosini ifodalaydi[6. 74] deb ta'riflagan. Prinsplarning to'g'ri tanlanishi darsda tashkil etiladigan faoliyatning samaradorligini ta'minlaydi, kichik muktab yoshidagi o'quvchilarning ushbu faoliyatga qiziqishlarini orttiradi. Ta'limshunoslikda xilma-xil

prinsiplar tizilmasi bayon etiladi. Chet til o'qitish metodistlari ta'limshunoslar tadqiqotlaridan samarali foydalanishadi, biroq ularning borligini o'zgarishsiz, befarq holda tan olaverishmaydi, ya'ni o'quv predmetini hisobga olib, ulami tatbiq etishadi. Chet til o'qitish metodikasida turli mualliflar tomonidan bir necha prinsiplar ishlab chiqilgan. Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan. Chunki ilgari prinsiplar sof didaktik tushuncha deb kelingan. Ta'limshunoslik prinsiplari til metodikasida ishlataladi, ammo o'qitish maqsadlari, mazmuni va shart-sharoitlari bevosita nazarga olinadi. Buyuk chek pedagogi Yan Amos Komenskiy XVII asrda kashf etgan didaktik prinsiplar hozirgi kungacha dolzarbligini saqlab kelmoqda, to'g'ri ularning ta'rif va talqinida qator o'zgarishlar yuz bergen[6. 75].

Ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan prinsiplar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning muhim qoidalari hisoblanib, ular uzluksiz ta'lim bosqichlarida chet tillarini samarali o'zlashtirishning kafolatidir. Chet til o'qitish metodikasida prinsiplarning nazariy asoslari dastlab E.I. Passov tomonidan (1965–70-yillar) ishlab chiqilgan bo'lsa-da, undan avval Y.A. Kamenskiy tomonidan ilgari surilgan umumdidaktik prinsiplar asos sifatida qo'llanilgan. Bugungi kunda ham umumiyo'rta ta'lim bosqichida ingliz tilini o'qitishda turli prinsiplar asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, ingliz tilini o'qitishda lingvistik, didaktik-pedagogik, psixologik-psixolingvistik va sof metodik prinsiplar qo'llaniladi. Ushbu prinsiplar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, belgilangan ta'limiylar va metodik maqsadlarga erishishda asosiy yo'riqnomalar vazifasini bajaradi. Shuningdek, chet til o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metod va usullar ham tanlangan prinsiplarning talablari asosida belgilanadi.

Tadqiqotimiz mavzusi doirasida chet til o'qitish metodikasida didaktik-pedagogik prinsiplarning umumiyo'rta mazmuni quyida muhokama qilinadi.

Didaktik-pedagogik prinsiplarning chet til o'qitish metodikasiga tatbiqi O'zbekiston olimlari J. Jalolov, U. Hoshimov, I. Yoqubov, T.Q. Sattorov, L.T. Axmedova, M.Ruzmetova, G'.Tajibayev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu prinsiplar xorijlik olimlar – Y.A. Kamenskiy, L.S. Vygotskiy, L.V. Shcherba, I.V. Raxmanov, G.E. Vedel, I.L. Bim, A.N. Leontyev, E.I. Passov,



N.A.Gorlova, I.A. Zimnyaya, N.D. Galskiy, N.I. Gez, Yu.K. Babanskiy, A.V. Xutorskiy, G. Wells va boshqalarning uzoq yillik tadqiqotlari asosida shakllantirilgan hamda ta'lif jarayoniga joriy etilgan. Mazkur prinsiplar quyidagilardan iborat[7. 82].

1. O'quv materialni hayot bilan bog'lash
2. O'qituvchi ko'magida o'quvchining ongchiligi va faolligi
3. Tushunarli va soddalik
4. Amaliyat va nazariyaning bog'liqligi yoki ilmiylik
5. O'quv materiallarni tushunarli qilib yetkazib berish
6. Malakalarni mustahkam egallash
7. O'quv jarayonida o'quvchining faol harakatlantirish ustunligi
8. Puxta o'zlashtirish
9. Produktivlik
10. Mobilik (operativlik) yoki faollik

Yuqorida tahlil qilingan didaktik-pedagogik prinsiplarga tayanib, tadqiqtishi doirasida asosiy deb tanlangan didaktik prinsiplarni O'zbekiston va yevropa olimlari J. Jalolov, G.Tajibayev, M.Ruzmetova, N.A.Gorlova va boshqa tadqiqtchilarining umumlashtirgan prinsplarini quyidagicha bayon qilamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Professor Jamol Jalolov ta'kidlaganidek, chet til o'qitish jarayonida asrlar davomida ko'plab pedagoglar tomonidan ilgari surilgan qoidalar va qarashlar umumlashtirilib, didaktik prinsiplar sifatida ilmiy asoslangan. O'qitish amaliyoti hamda tarixiy tajribalardan kelib chiqqan ushbu prinsiplar vaqt sinovidan o'tib, ta'lif jarayonida mustahkam o'rinnegallagan. Ularning nomlanishi yoki mazmunida ayrim farqlar mavjud bo'lsa-da, hozirgi ta'lifshunoslikda quyidagi tamoyillar keng qabul qilingan va samarali deb hisoblanadi: tarbiyaviy ta'lif, onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, izchillik (sistemalilik), individual yondashuv, puxta o'zlashtirish hamda o'quvchi kuchiga moslik. J.Jalolovning fikricha, bu prinsiplarning har bir o'quv fanida o'ziga xos qo'llanishi tabiiy hol bo'lib, chet tillarini o'qitishda ham ular alohida ahamiyat kasb etadi[6. 82]. Tadqiqt ishimiz doirasida ta'lif jarayonida umumlashtirilgan didaktik prinsplar boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini



o'rgatishda faol qatnashadi. Quyidagi jadvalda (1.1-jadvalga qaralsin) ularning kreativ tafakkurni takomillashtirishdagi ahamiyati haqida ma'lumotlarni taaaavsfif qilamiz.

1.1-jadval.

Chet til predmetini o'qitishdagi asosiy prinsplar va ularning kreativ tafakkurni shakllantirishdagi o'rni.

No	Prinsip nomi	Qisqa mazmuni	Kreativ tafakkurni shakllantirishdagi o'rni
1	Tarbiyaviy ta'lif	Bilim bilan birga ijobjiy fazilat, estetik did va qadriyatlarni shakllantirish.	Kreativ tafakkurning ma'naviy asoslarini mustahkamlaydi, estetik va qadriy yondashuvlarni rivojlantiradi.
2	Onglilik	Bilimni ongli o'zlashtirish, uni yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llash.	Mustaqil fikrlash va noodatiy yechim topish qobiliyatini kuchaytiradi.
3	Faollik	O'quvchini faol ishtirokchi qilish, ijodiy o'yin va mashqlar orqali rag'batlantirish.	O'quvchini ijodiy jarayonga jalg'etib, faol tafakkur va yangicha g'oya ishlab chiqishga yo'naltiradi.
4	Ko'rgazmalilik	Vizual vositalar yordamida tasavvurni kengaytirish va yangi g'oyalar yaratish.	Tasavvur va obrazli fikrlashni rivojlantirib, ijodiy g'oyalarni shakllantirishga zamin yaratadi.
5	Puxta o'zlashtirish	Bilimni mustahkam egallash, uni amalda qo'llash va yangicha qarorlar chiqarish.	Mustahkam bilim asosida yangi g'oyalar ishlab chiqish va kreativ qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Jamol Jalolov tomonidan ilmiy asoslangan ushbu prinsiplar boshlang'ich sinfda ingliz tili ta'lmini samarali tashkil etish bilan birga, o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda muhim metodik tayanch bo'lib xizmat



qiladi. Ularning uyg'un qo'llanishi bolalarda mustaqil fikrlash, yangicha yondashuvlar ishlab chiqish va ijodiy faoliyatga tayyorlikni ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'lilda xorijiy tillarni o'qitishning didaktik prinsplarini N.A.Gorlova quyidagicha umumlashtirgan: o'quvchi salohiyatiga moslik, individual yondashish, sistemalilik[8.182-190]. Ushbu didaktik prinsipler boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tillarni o'qitishda va ularning kreativ tafakkurini rivojlantirishda foydali hisoblanadi. N.A.Gorlova tomonidan umumlashtirilgan prinsplarning boshlang'ich sinf o'quvchilaring kreativ tafakkurini takomillashtirishdagi o'rni va foydali jihatlarini quyidagicha bayon qilamiz.



O'quvchi salohiyatiga moslik prinsipi

Har bir o'quvchining individual salohiyati va bilish imkoniyatlari turlicha bo'lgani uchun o'quv materiallari va qo'llaniladigan mashqlar texnologiyalari o'quvchilarning psixologik yoshi hamda kognitiv imkoniyatlariga moslashtirilishi maqsadga muvofiq. Natijada, o'quvchilarning o'z kuchiga ishonishi mustahkamlanadi, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay fursat yaratiladi. O'quv materialini o'zlashtirish uchun taklif qilinadigan tinglab tushunish, o'qish va gapirish nutqiy nutqiy faoliyat turlariga tegishli matnlar va topshiriqlar kreativ tafakkurni bosqichma-bosqich rivojlantiradi.



Individual yondashish prinsipi

Boshlang'ich sinfda har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va xarakteri turlicha bo'ladi. O'qituvchi individual yondashuv asosida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, kimdir rasm chizishda, boshqasi esa she'r aytishda yoki hikoya tuzishda kuchli bo'lishi mumkin. Individual yondashuv bolalarning tabiiy ijodiy qibiliyatlarini qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi.



Sistemalilik.prinsipi

Kreativ tafakkurni rivojlantirish jarayoni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur. Bu jarayonda o'quvchilar bilimlarni faqat alohida emas, balki uzluksiz tizimda o'zlashtiradilar. Sistemalilik prinsipiga asoslangan darslar o'quvchilarda mantiqiy bog'lanishlarni ko'rish, sabab-oqibat munosabatlarini

tushunish va yangi g'oyalarni kompleks tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa kreativ tafakkurni chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafa fanlari doktori, dotsent Muhabbat Ro'zmetova boshlang'ich sinflarda chet til o'qitishning lingvovididaktik asoslarini quyidagicha tahlil qilgan.

Chet tilini o'qitish samaradorligi ko'p jihatdan ta'lif jarayonida nazarda tutilgan psixolingvistik, metodologik hamda pedagogik omillarning uyg'unligiga tayanadi. Avvalo, ta'lif mazmuni nutq faoliyatining barcha shakllari - tinglab tushunish, og'zaki nutq, o'qish va yozuv - o'zaro integratsiyalashgan va izchil tizimda o'rgatilishini talab etadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarda lingvistik, kommunikativ, pragmatik, sotsiolingvistik va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni didaktik maqsadlarning markaziga qo'yiladi[9. 15]. Tadqiqot ishi doirasida dissertatsiya mavzusiga tegishli lingvovididaktik prinsiplar xususida o'rganilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, ushbu prinsiplarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'qitish jarayonida kreativ tafakkurni rivojlantirishning aniq foydali jihatlari bo'yicha qo'shimcha punktlar ishlab chiqildi.

Og'zaki nutqda erkinlik

Dialog va monolog nutq turlaridan foydalanish o'quvchilarga o'z fikrlarini mustaqil va ishonch bilan ifodalash imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari og'zaki nutqda faol qatnashish orqali o'z g'oyalarni ijodkorona ifodalashni o'rganadilar.

Tanqidiy va reflektiv fikrash.

Matnlar bilan ishlash jarayonida tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa o'quvchilarda o'z fikrini asoslab berish, boshqalarning javoblariga tanqidiy yondashish va refleksiya qilish malakasini rivojlantiradi.

Fanlararo integratsiya.

Ingliz tilini matematika, san'at, texnologiya kabi boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish ijodiy g'oyalalar yaratish imkoniyatini kengaytiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning bilimlarni turli nutqiy vaziyatlarda qollash va yangi g'oyalalar ishlab chiqish qobiliyatini oshiradi.

O'z-o'zini ifodalash va shaxsiy kreativlik.



O‘quvchilar mustaqil fikrlash, o‘z qarashlarini erkin ifodalash va yangilikka intilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon ularning shaxsiy kreativ tafakkurini kuchaytirib, ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

Falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilayotgan mazkur tadqiqot ishi mavzusidan kelib chiqib, boshlang‘ich sinflarga ingliz tilini o‘rgatishda kreativ tafakkurni rivojlantirishga asos bo‘la oladigan 6 ta didaktik prinsiplar tanlandi, hamda ularning ishonchlilagini isbotlab berishga harakar qilamiz. Ular haqida quyidagilarni bayon qilamiz. (1.2-jadvalga qarang) .

1.2-jadval

Boshlang‘ich sinflarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda tanlangan didaktik prinsiplar tavsifi, mazmuni hamda ta’siri.

Prinsip	Mazmuni	Kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni	“Moslashtiruvchi Matching” mashqlaridagi ahamiyati
1. Onglilik	Yangi ma’lumotni anglash va tahlil qilish, so‘ngra uni kommunikativ vaziyatda qo’llashni nazarda tutadi.	O‘quvchilarda tanqidiy tahlil va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, mustaqil xulosa chiqarish hamda ijodiy yondashuvga asos yaratadi.	Nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish va o‘qishga oid matnlarni tushunishda “Moslashtiruvchi (Matching)” mashqlarini bajara olish va ularni taniy olishni ta’minlaydi. O‘quvchi o‘z bilimlarini anglab, to‘g‘ri bog‘lanishlarni topadi, bu esa ijodiy fikrni qo’llashga yordam beradi.
2. Faollik	O‘quvchining o‘quv jarayonida	Mustaqil fikrlash, yangi g‘oyalarni	“Moslashtiruvchi Matching” mashqlarida

	faol ishtirok etishini ta'minlaydi.	ilgari surish va ijodiy tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi.	faol ishtirok etish orqali o'quvchilar turli variantlarni sinab ko'rishadi, noodatiy yechimlar yaratishga intilishadi.
3. O'quvchi kuchiga moslik	O'quvchilarning psixologik, yosh va bilim salohiyatiga mos topshiriqlarni tanlashni ta'minlaydi.	Mos darajadagi topshiriqlar o'quvchilarda o'z kuchiga ishonchni oshiradi, ijodiy fikrni qo'llashga rag'batlantiradi.	"Moslashtiruvchi Matching" mashqlari murakkablik darajasiga qarab moslashtirilsa, o'quvchilar o'z salohiyatini to'liq namoyon qilib, ijodiy yechimlarni izlashga harakat qilishadi.
4. Individual yondashuv	Har bir o'quvchining qobiliyati va yosh xususiyatlarini hisobga oladi.	Har bir bola o'ziga xos ijodiy qobiliyatini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.	"Moslashtiruvchi Matching" mashqlarida turli individual yondashuv orqali o'quvchilar o'z uslubida bog'lanishlarni topib, ijodiy tafakkurni shakllantiradi.
5. Autentiklik yondashuvi	Real nutqiy vaziyat va autentik materiallar asosida o'qitishni tashkil etadi.	O'quvchilarni hayotiy vaziyatlarga mos holda ijodiy yechim topishga o'rgatadi, erkin	"Moslashtiruvchi Matching" mashqlari autentik materiallarga asoslanganida o'quvchilar real nutqiy kontekstda kreativ tafakkurni

		ifodani rivojlantiradi.	qo'llash imkoniga ega bo'ladi.
6. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish	Raqamli resurslar va texnik vositalardan samarali foydalanishni ko'zda tutadi.	O'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi, ko'rgazmali va interaktiv usullar orqali ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.	"Moslashtiruvchi Matching" mashqlarini multimedia vositalari yordamida bajarish o'quvchilarning diqqatini jalg qiladi va ijodiy yondashuv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazkur jadvalda 6 ta prinsplar umumlashtirildi. Tahlil qilingan didaktik prinsiplar majmuasi asosan kreativ tafakkurni rivojlantirish yuzasidan umumlashtirildi. Ular o'quvchilarda chet tillarni xususan, ingliz tilini o'rgatish jarayonida ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu jarayonda o'quvchilar nafaqat chegaralangan yoki darsliklarda yoritilgan mavzular orqali yangi ma'lumotlarga ega bo'lib qolmay, balki turli vaziyatlarga oid dialoglar va monologlarni tinglab qo'llashni, tinglash orqali taklif qilingan mashqlarni bajarishadi. “Matching (moslashtiruvchi) through listening” mashqlardan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tadqiqotimiz mavzusi doirasida ishlab chiqilgan podkast ssenariysi o'quvchilarning tinglash, tezkor axborotni qayta ishslash, diqqatni jamlash, shuningdek, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Podkastda nazariy tushuntirish, amaliy topshiriqlar namunasi hamda metodik tavsiyalar o'z ifodasini topgan. Ushbu yondashuv ingliz tilini o'qitishda innovatsion vosita sifatida qo'llanilib, o'quvchilarda nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek autentik matnlar bilan tanishadilar va ularni tushunganligini nazorat qiluvchi “Moslashtiruvchi (Matching)” mashqlar kompleksini bajarishi



rejalashtirilgan. Natijada turli sinflardagi o'quvchilarining psixologik yoshiga mos ijodkorlik ya'ni kreativlik, tashabbuskorlik qobiliyatlari shakllanishiga erishiladi.

Yuqorida keltirilgan prinsplar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilini yanada chuqurroq anglash uchun xizmat qiluvchi prinsplar hisoblanib, quyida ularga qo'shimcha qilib yevropa olimlarining til o'r ganish uchun xizmat qiluvchi prinsplarini ham ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'qitishning didaktik, psixolingvistik, metodik va pedagogik prinsplari va yondashuvlar mavjud bo'lib, ular har biri o'quv jarayonining muayyan jihatlariga qaratilgan. Quyida ushbu prinsplarning kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi:

Direct Method (To'g'ri usul) asoschilari Sauveur, Maximillian Bertlitz tajriba jarayonida quyidagi prinsiplarni tavsiya etishgan:

1. Sinfda o'qitish o'rganilayotgan tilda olib boriladi
2. Faqatgina kunlik lug'at va gaplar o'qitiladi
3. Og'zaki muloqot ko'nikmalari kichik intensiv sinflarda o'qituvchilar va talabalar o'rtasida savol-javob almashinuvi tarzida tashkil etilib, bosqichma-bosqich shakllantiriladi.
4. Grammatika induktiv tarzda o'qitiladi
5. Yangi ma'lumotlar og'zaki tanishtiriladi
6. Mavjud lug'at ko'rgazmalar, predmetlar va rasmlar orqali o'rgatiladi, mavhum lug'at g'oyalar yig'indisi orqali o'rgatiladi
7. Ham og'izaki nutq, ham tinglab tushunish o'rgatilinadi
8. To'g'ri talaffuz va grammatikaga urg'u beriladi[10. 12].

Direct Method asoschilari tajriba jarayonida ya'ni o'quvchilarini o'qitish jarayonida 8 ta prinsiplarni asosiy deb olishgan. Yuqorida keltirilgan prinsplardan dastlabkisiga to'xtaladigan bo'lsak, ya'ni "Sinfda o'qitish o'rganilayotgan tilda olib boriladi" degan fikrga qo'shimcha qilib, o'rganilayotgan tilni nafaqat o'sha tilning o'zida balki o'rganuvchilarining o'z ona tillarida ham izohlab berish boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiyichilik tug'dirilishini oldini oladi. "Faqatgina kunlik lug'at va gaplar o'qitiladi" degan prinsp esa o'quvchilarini ortiqcha lug'at va gaplarni yodlamasdan faqatgina asosiyalariga e'tibor qaratib, ularni mukammal o'rganishga



yordam beradi. "Og'zaki muloqot ko'nikmalari kichik intensiv sinflarda o'qituvchilar va talabalar o'rtasida savol-javob almashinuvi tarzida tashkil etilib, bosqichma-bosqich shakllantiriladi" degan prinspda shuni nazarda tutish lozimki, kichik intensive sinflarda savol-javob almashinuvi tarzida tashkil etilgan og'izaki muloqot umumiy guruhga berilgan savol-javob almashinuvi jarayonidan samaraliroq natija bershi ko'zda tutiladi. "Grammatika induktiv tarzda o'qitiladi" ushbu prinspda grammatika ya'ni xususiylikni o'rganib, umumiylukka o'tiladi. "Yangi ma'lumotlar og'zaki tanishtiriladi" ushbu prinsp orqali o'quvchilarga fan va o'rganilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar og'zaki tushuntirilishi samaraliroq ekanligi aytilmoqda. "Mavjud lug'at ko'rgazmalar, predmetlar rasmlar orqali o'rgatiladi, mavhum lug'at g'oyalar yig'indisi orqali o'rgatiladi" ushbu prinsp orqali ilgari surilgan fikrda esa autentik materiallardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Berlitz tillarni o'qitish bo'yicha global tarmoq bo'lib, har bir qit'a va muhim mamlakatda darslar tashkil etadi. Berlitz AQShda bir nechta katta shaharlar va shtatlarda filiallarga ega, jumladan:

- Washington, D.C. (en: Washington DC Language Center)
- Florida shtatida — Miramar (Broward Language Center) va Orlando
- Maryland — Odenton Language Center
- New Jersey — Princeton Language Center
- New York City Language Center — Nyu-York shahri
- Virginia shtatining Tysons Corner shahri

Zamonaviy Berlitz maktablarida qo'llaniladigan didaktik-metodik prinsiplar quyida mufassal bayon etilgan:

1. Tarjima qilish tavsiya etilmaydi: buning o'rniqa ko'rsatish va namoyish etish samaraliroq hisoblanadi.
2. Faqat tushuntirish bilan chegaralanish maqsadga muvofiq emas: o'quvchilarning o'zları bajarishi va harakat qilishlari muhim.
3. Uzoq nutq so'zlash pedagogik jihatdan noo'rini: buning o'rniqa savol berish va muloqotga jalb qilish samarali hisoblanadi.
4. Xatolarni takrorlash tavsiya etilmaydi: ularni to'g'rilab borish zarur.



5. Yakka so'z bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas: jumlalardan foydalanish afzal[10.12].

Berlitz maktablarida qo'llaniladigan mazkur didaktik-metodik prinsplar ham o'quvchilarining ingliz tilini mukammal darajada egallashlariga xizmat qiladi. Berlitz o'z prinsplarida ayrim ta'limi yondashuvlarni qat'iyan rad etib, o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan prinsplarga kuchli urg'u bergan.

XULOSA

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish jarayonida didaktik, psixolingvistik, metodik va pedagogik prinsiplarning uyg'unligi nafaqat samarali til o'rganishga, balki o'quvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. J.Jalolov, M.Ro'zmetova, G.Tajibayev, hamda zamonaviy tadqiqotchilar (N.A.Gorlova, Richards & Rodgers, Pinter, Cameron, Maley & Peachey) ta'kidlaganidek, mazmunli kontekst yaratish, multisensor yondashuv, autentik materiallardan foydalanish, nutqiy yo'nalganlik, kommunikativ mashg'ulotlar, individual yondashuv, motivatsiyani kuchaytirish va bag'rikenglikni shakllantirish bugungi kunda eng dolzarb prinsipler hisoblanadi. Shuningdek, Direct Method, Oral Approach va CLT tamoyillari ham o'quvchilarni tabiiy muloqotga yaqinlashtirib, ularda ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi. Natijada, bu prinsipler boshlang'ich sinf o'quvchilarini chet tilini nafaqat bilishga, balki uni ijodiy va hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llashga tayyorlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Aristotle. *Metaphysics* (Tarjima va sharh: Hugh Lawson-Tancred). – London: Penguin Classics, 1998. – P. 12–15. – 528 p.
2. Copleston, F. *A History of Philosophy, Volume II: Medieval Philosophy*. – New York: Doubleday, 1993. – P. 89–92. – 624 p.
3. Gaukroger, S. *The Emergence of a Scientific Culture: Science and the Shaping of Modernity, 1210–1685*. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – P. 201–205. – 576 p.
4. Losee, J. *A Historical Introduction to the Philosophy of Science*. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – P. 67–71. – 328 p.
5. Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е. Урок иностранного языка. – М.: Голоса-Пресс, 2010. – С. 22. – 640 с.
6. Jalolov J.J. *Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik: Chet til o'qitish metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B. 74, 75, 82 – 434 b.



- 7.Ruzmetova Muxabbat Shakirovna. *Ilmiy dissertatsiya: Umumiy o'rta ta'lif 5–7 sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.* – Toshkent, 2021. – B. 47, 231 b.
- 8.Горлова Н.А. *Личностно-деятельностный метод обучения иностранным языкам дошкольников, младших школьников и подростков. Теоретические основы.* – М.: МГПУ, 2010. – С. 182–190. – 248 с.
- 9.Ruzmetova M.Sh., Xalilova Sh.T. va b. *Ilmiy-metodik qo'llanma: Boshlang'ich sinflarda chet tillarni o'qitishning psixologik asoslari va samarali texnologiyalari.* – Toshkent, 2015. – B. 15. – 160 b.
- 10.Richards, J.C., Rodgers, T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching.* Third Edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – P. 12. – 410 p.